



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



DARYOLAR HAVZALARINING GIDROMETEOROLOGIK O‘RGANILGANLIGI

Nurliboyev Xusan Xolbek o‘g‘li
Doktarant, Samarqand davlat universiteti
nurliboyevxusan@gmail.com

Annotatsiya. Daryolar suv rejimi elementlarining davriy tebranishi suv resurslarini shakllanishi qonuniyatlarini hamda prognozlashtirish ishlarida asosiy ko‘rsatgich hisoblanadi. Hisoblash ishlarini bajarish uchun esa dastlabki kuzatuv malumotlarini talab qiladi, shu maqsadda biz O‘rta Zarafshon havzasida gidrologik kuzatuvlar kuzatuvlar davrlarini tahlil qilamiz.

Kalit so‘zlar: gidrologik kuzatuvlar, O‘rta Zarafshon, suv sarfi, muallaq oqiziqlar.

O‘rta Osiyo daryolari havzalarining gidrometeorologik rejimi masalalari o‘tgan XX asrning o‘rtalarida K.P.Voskresenskiy, L.K.Davidov, V.L.Shuls, I.A.Ilin, P.M.Mashukov, M.N.Bolshakov, M.A.Nasirov, D.P.Sokolov va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Keyinchalik, aniqrog‘i, 20-asrning oxirgi choragida, ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar A.A.Akbarov, V.G.Konovalov, G.Ye.Glazirin, B.A.Kamolov, A.R.Rasulov, V.Ye.Chub, D.Yu.Yusupova, B.K.Saryov, A.F.Shohidov, F.H.Hikmatov, L.M.Karandayeva kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan [3; 24-38-b.]. Oxirgi yillarda S.A.Xaydarov, D.N.Shirinboyev R.R.Ziyayev, Sh.G’aniyevlar tadqiqotlarida Zarafshon hamda aynan O‘rta Zarafshon havzasiga oida tadqiqotlar olib borilgan. Quyida, mazkur kichik bo‘limning maqsadidan kelib chiqqan holda, O‘rta Zarafshon havzasining gidrologik va meteorologik o‘rganilganligi masalalariga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

O‘rta Osiyo xususan, O‘zbekistonda gidrometeorologik kuzatuvlar tarixi tadqiqotchilar tomonidan to‘rt davrga ajratiladi:

-birinchi davr, XIX asrning 70-yillaridan 1917 yilgacha, bu davrda Toshkent astronomiya va fizika observatoriyalari tashkil etilgan, birinchi meteorologik stansiya va postlar ochilgan, Turkiston o‘lkasi Yer va davlat mulki boshqarmasi tarkibida gidrologik va meteoroloik tadqiqotlarni olib boradigan Gidrometrik qism tashkil etilgan;

-ikkinci davr, ya’ni 1918-1945 yillar, bu davrda markazlashgan gidrometeorologik xizmat tashkil qilinib, uning asosiy maqsadi armiyani (asosan aviatsiyani) va xalq xo‘jaligi tarmoqlarini gidrometeorologik ma’lumotlar bilan ta’minalashga qaratilgan;

-uchinchi davr, 1945-1990 yillar, ya’ni Vatan urushidan keyingi davrda kuzatish tarmoqlari rivojlantirildi, ayniqsa, 1960 yillardan boshlab, gidrometeorologik stansiyalar soni ortdi, 1970-1980 yillardan boshlab esa, kuzatish ma’lumotlarini to‘plash va qayta ishslashda avtomatlashtirilgan tizim va EHM qo‘llanila boshlandi, sputnik ma’lumotlaridan foydalanish joriy etildi, meteorologik jarayonlarga faol ta’sir etish ishlari yanada rivojlantirildi [3; 24-25-b.].

O‘rta osiyo daryolari havzaladida muntazam gidrologik kuzatuvlar 1910-yildan boshlab tashkil qilina boshlangan.

O‘rta Zarafshon havzasida, V.Ye.Chub ma’lumotlariga ko‘ra, 2353 ta kichik daryolar va soylar mavjud bo‘lib, ulardan atiga 137 tasining uzunligi $L \geq 10$ km shartini bajaradi. Ularning aksariyati erta bahorda to‘lib-toshib oqsa, yozda qurib qoladi. Gidrologik






TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



kuzatishlar turli yillarda havzadagi 13 ta daryoning 38 ta punktida amalga oshirilgan [4; 79-80].

O‘rta Zarafshon havzasida jami 13 ta daryoda gidrologik postlar mavjud bo‘lib, ularning ko‘philigidagi hidrologik kuzatish ishlari o‘tgan asrning 40-yillari oxirlaridan boshlangan. Ushbu hidrologik postlardan eng uzoq va hozirgacha faoliyat olib borayotganlari Urgutsoy (Urgut sh.), Tusunsov (Qoraqiya. q.), Beglarsoy (Yangi Oqchop q.) lar misol bo‘ladi. Dastlabki kuzatishlar XX asrning 50-yillaridan boshlab, Urgutsoy (Urgut sh.), Tegirmonsoyda Sag‘ishmon qishlog‘i yaqinida, 60-yillaridan boshlab esa Omonqo‘tonsoy (Omonqo‘ton q.), To‘sunsov (Qora-Qiya q.), To‘sunsov (quyilishi), Oqtепasoy (Ocha q.) va Beglarsoy (Yangi-Okchob qishlog‘i) kabi kichik daryolarda ham hidrologik kuzatishlar amalga oshirila boshlandi. Shuningdek, 70-yillardan boshlab Qayrag‘ochsoy (Mavlon q.) va Ko‘ksaroysoy (tog‘dan chiqishi) daryolarida ham hidrologik kuzatish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Tahlillar natijasida, yuqorida keltirib o‘tilgan Tegirmonsoy (Sag‘ishmon q.), To‘sunsov (Qora-Qiya q.), Ko‘ksaroysoy (tog‘dan chiqishi) va boshqa daryolarda, ba’zi ob‘ektiv va sub‘ektiv sabablarga ko‘ra, hidrologik kuzatishlarda uzhishlar mavjudligi aniqlandi. Shuningdek, ayrim daryolarda, jumladan, Tegirmonsoy (Sag‘ishmon q.), Ko‘ksaroysoy (tog‘dan chiqishi) daryolaridagi hidrologik postlardagi kuzatish yillari soni, boshqa daryolarga nisbatan qisqa qatorlidir. Bu holatni Maydonsov (Olmaota) daryosi misolida ham ko‘rshimiz mumkin.

1-jadval ma’lumotlarida ko‘rinadiki kuzatish punktlarida daryolar hidrologik rejimida muallaq oqiziqlar sarfi barchasida ham ma’lumotlar mavjud emas. 60-yillarda Urgutsoy (Urgut sh.), To‘sunsov (Qora-Qiya q.), 70-yillarda Omonqo‘tonsoy (Omonqo‘ton q.), Beglarsoy (Yangi-Okchob qishlog‘i), Ko‘ksaroysoy (tog‘dan chiqishi), Qayrag‘ochsoy (Mavlon q.), 80-yillarda Oqdaryo (Og‘alik q.), Maydonsov (Olmaota) daryolarida muallaq oqiziqlar to‘g’risidagi ma’lumotlar to‘plab borilgan. Ushbu kuzatilgan malumtlar qatori ham doimiy olib borilmagan, hozirgi kunda Oqdaryo (Og‘alik q.), Qayrag‘ochsoy (Mavlon q.) daryolarida uzluksiz davom eti kelmoqda (1-rasm).



1-rasm. Kuzatuv punktlarida suv sarfi va muallaq oqiziqlar oqimi kuzatilan yillar soni Ushbu daryoda hidrologik kuzatishlar o‘tgan asrning 80-yillari boshidan yo‘lga qo‘yilgan





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



(1-jadval). Biz mazkur dissertatsiya ishida o‘rganayotgan daryolar va soylardagi gidrologik postlarda suv sathi, suvning harorati, suv sarfi, muallaq oqiziqlar oqimi va suvning kimyoviy tarkibi kuzatilib borilgan. Shu kungacha O‘rta Zarafshon havzasining 13 ta kichik daryolari va soylaridagi 15 ta gidropostlarda yuqorida qayd etilgan hidrologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha kuzatish ma’lumotlari mavjud.

1-jadval

O‘rta Zarafshon havzasida hidrologik kuzatishlar olib borilgan daryolar va soylar haqida ma’lumot

t /r	Daryo - kuzatish joyi	F, km ²	H, m	Kuzatish yillari soni			
				Q, m ³ /sek	R, kg/sek	Soni	
				Q	R		
	Urgutsoy - Urgut sh.	25,1	1710	1950-1989, 2006-2023	1966-1989	5 8	2 4
	Omonqo‘tons oy - Omonqo‘ton q.	57,8	1601	1970-2023	1971-1975, 1977-1992	5 4	2 1
	Oqdaryo - Og‘alik q.	70,9	1390	1985-2023	1985-2023	3 8	3 8
	Sazag’ansoy – Sazag’an q.	26.8	1450	1949-2000	-	7 4	-
	Qorasuv – Kosa q.	120	1040	1959-1962	-	4	-
	Tegirmonsov-sag’ishman q.	39.3	1140	1959-1984	-	2 6	-
	Tusunsov - Qoraqiya q.	893	1110	1963-2023	1966-1991	6 1	2 5
	Oqtepasoy – Ocha q.	43.8	1570	1963-2023	-	6 1	-
	Qoraog‘ach - Mavlon q.	34,7	1257	1978-2023	1979-2023	4 6	4 5
	Ko‘ksaroysoy - Ko‘ksaroy q.	247	1070	1977-1985	1977-1985	9	9
	Maydon - Olmaota q.	62,5	1138	1982-2005	1983-2005	2 4	2 3
	Beglarsoy - Yangi Oqchob q.	180	1340	1964-2023	1974-2001	6 0	2 8

Izoh: F – daryolarning suv toplash maydonlari, km²; H - daryolar suv toplash maydonlarining o‘rtacha balandligi, m;

Xulasa. O‘rta Zarafshon havzasida 13 ta havzada 15 ta kuzatuv punktida kuzatuvlardan olib borilgan bo‘lib, ushbu kuzatuvlarda suv sarfi va muallaq oqiziqlar sarfi singron olib





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



borilishi yetrali darajada taminlanmagan. Kuzatuvlarning oxirgi davrlarida ayniqsa muallaq oqiziqlar ma'lumotlarning yetishmasligi qo'shimcha ekpremental kuzatuvlarni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. К.Рахмонов, Ф.Ҳикматов. Ўзбекистон тоғ дарёлари муаллақ оқизиқлари ва улар ҳавзаларидан тупроқ-грунтлар ювилиши жадаллигини баҳолаш. Тошкент -2021. 145 б
2. Нурлибоев Ҳ.Ҳ., Утениязов А.С., Назарбеков А.К. Дарёлар сув са муаллақ оқизиқлар сарфларининг ўрганилганлиги. Zamonaviy geografik tadqiqotlar: nazariya, amaliyot, innovatsiya// Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Samarqant, 2023 yil 12-13 may.
3. Ҳикматов Ф.Ҳ., ... Ғаниев Ш.Р. ва бошқ. Зарафшон дарёси ҳавзасининг гидрометеорологик шароити ва сув ресурслари. Монография. –Тошкент: «Fan va texnologiya», 2016. – 276 б.
4. Чуб В.Е. Изменение климата и его влияние на гидрометеорологические процессы, агроклиматические и водные ресурсы Республики Узбекистан. Ташкент: Vorisnashriyot, 2007. 132 с.

